



## TUPROQSHUNOSLIK FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7847249>

**Abduxakimova Xusnidaxon Abdullayevna**  
b.f.f.d. (PhD) *Farg'ona davlat universiteti*

**Annotatsiya.** *Zamonaviy pedagogik texnologiya usullarini qo'llash oliy ta'limda o'qitish jarayonining yuqori samaradorlikka erishishiga olib keladi. Maqolada tuproqshunoslik fanlarini o'qitishda ta'lim berishning noan'anaviy metodlaridan foydalanishning ayrim usullaridan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *pedagogik texnologiya, interfaol usul, nutq, tarbiya, muloqot, savol-javob, mantiq, fikrlash.*

Bugungi kunda respublikamizni rivojlangan davlatlar darajasiga chiqarish maqsadida ta'lim sohasida ham bir qator qonun va qarorlar qabul qilinmoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida rivojlangan mamlakatlar darajasida raqobatbardosh, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini egallagan, yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadi va O'zbekistonning kelajagi, istiqboli, avvalambor yoshlar tarbiyasiga, sog'lom muhitni yaratishga, ularni o'stirishga, milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalashga bog'liq bo'lib, bu murakkab jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish mustaqil mamlakatning eng dolzarb vazifalaridan biridir [1].

Yuqori malakali pedagoglarga bo'lgan talablar kundan kunga ortib borib, barkamol avlodni asrdar davomida shakllanib kelgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega, fanning fundamental asoslarini, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorganligi yuksak darajada bo'lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakasiga ega ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etiladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan ehtiyoj va talab kun sayin kuchayib bormoqda.

Pedagogik texnologiyaning asosiy elementlari quyidagilardan iborat, ya'ni:

1. Pedagogik muloqot texnologiyasida o'qituvchi (pedagog)ning o'quvchi-talabalar bilan muloqotidir. Muloqotning vazifalari:

- shaxsni tanish, axborot almashish;
- kelgusi pedagogik muloqotni modellashtirish va tahlil etish;
- muloqotdan olinadigan tasavvurlar;
- muloqot yuzasidan fikrlash va fikr almashish;
- pedagogik muloqotni tashkil etishning texnikasi va texnologiyasi;



- ishga ijodiy yondashish va boshqalar [2,3].

2. Baholash texnologiyasi, pedagogik baho va uni mezonlash:

- xatti-harakatlardan olingan taassurot, voqelikni, obyekt va subyektning qabul qilish;

- baho berish usullarini tanlash, o'qituvchi(pedagog)ning o'z imkoniyatini tahlil etishi va ta'sir samaradorligini oshirishi);

-pedagogik baholash texnologiyasi.

3. Axborotning ta'sir ko'rsatish texnologiyasi:

- nutqiy-axborot berish, «ratsional axborot berish» tushunchalari, demonstratsion va ko'rgazmali vositalar-axborot olish vositalaridan biri sifatida;

- nutqiy ta'sir etish, suhbat, hamkorlik, tezis, argument, ko'rgazmalar;

- nutqiy ta'sir etish texnologiyasi;

- demonstratsion va ko'rgazmali vositalar, etik, iqtisodiy, estetik, gigiyenik materiallar;

- qabul qilishning fiziologik va psixologik xususiyatlarini demonstratsiya qilish texnologiyasi.

4. Pedagogik vaziyatlarni yaratish va uni yechish texnologiyasi:

- pedagogik konflikt tushunchasi – konflikt pedagogik texnologiya elementi sifatida, konflikt subyektlari orasidagi qarama-qarshiliklar, bo'sh va mazmunli konflikt;

- holat tahlili (voqeani aniqlash);

- konflikt;

- konfliktning xilma-xilligi (norozilik, qarshi chiqish);

- konfliktning yechish shakllari (hazil, mutoiba).

Pedagogik texnologiya atamasiga YUNESKO halqaro tashkiloti tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra:

**Pedagogik texnologiya** – ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarni qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir [4].

Shuningdek, texnologiya deganda, subyekt tomonidan obyektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida subyektning sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, obyektga yo'naltirilgan aniq maqsadli amallarni muayyan ketma - ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Yuqorida keltirilgan tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchi(pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi-talabalarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarini intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa yoki boshqacha aytganda, o'qituvchi tomonidan o'qitish vositalari yordamida o'quvchi-talabalarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni deb ta'riflash mumkin [5,6].






Odatda, tuproqshunoslik fanlarini o'qitishda talabalarning hamkorlikda, guruh bo'lib ishlashlari bilan bog'liq texnologiyalar asosan, seminar dars mashg'ulotlarida muhim natija berib, ma'ruza darslarida ta'lim beruvchi tomonidan dars jarayonida "Zig-zag", "Charxpalak", "Tushunchalar tahlili", "Klaster", "Agar men", "Blist", "Bumerang", "Yelpig'ich", "Aqliy hujum" kabi metodlar yordamida talabani qiziqtirish, diqqatini jamlash, fikrlash jarayonini tezlatish va oson o'zlashtirishga imkon beruvchi organayzer va texnologiyalarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Quyida ma'ruza mashg'ulotlari uchun qo'llanilgan usullarning bir nechtasini keltirib o'tamiz.

### "Savol-javob" usuli

Bu usul mavzuning talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini aniqlashga yordam beradi. Uni qo'llashning samaradorligi savol-javoblarning aniq, qisqa va tushunarli tarzda ifoda etishi, aynan mavzuga doir bo'lishiga bog'liq.



### "Veyer" usuli

Bu texnologiya murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborat beriladi. Ayni paytda, ularning har biri aloxida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda g'oyalar, fikrlarni yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, ximoya qilishga imkoniyat yaratadi [7,8].

"Veyer" texnologiyasi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarning, har bir qatnashuvchi guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

"Veyer" texnologiyasidan mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida foydalanish mumkin.

-boshida, o'z bilimlarini erkin faollashtirish.

- mavzuni o'rganish jarayonida, uning asoslarini chuqur faxmlash va anglab yetish.



- yakunlash bosqichida, olingan bilimlarni tartibga solish.

Yuqorida misol tariqasida keltirilgan ushbu zamonaviy metodlar hamda treninglarda qo'llanilgan texnologiyalar o'quvchi-talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga yordam beradi [9].

Ma'ruza mashg'ulotlari ta'limning boshqa shakllaridan farqli ravishda, an'anaviy ta'limda asosan o'qituvchi tomonidan boshqarilib, bu holat barcha talabani o'ziga o'qituvchi tomonidan boshqarilib, bu holat barcha talabani o'ziga jalb eta olmaslik, ularning o'quv materiallarini notekis o'zlashtirishlariga va shu kabi ko'plab nuqsonlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ma'ruza ma'lumotlarini o'rganishda ularning ta'lim beruvchi bilan, shuningdek, o'zaro hamkorligini tashkil etish asosida olib borish har bir talabani dars jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlash va shu orqali ularni yuqori darajada o'zlashtirishlarini ta'minlash imkonini beradi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Mirzayev U.B. "Tuproqshunoslik" kursini o'qitishda pedagogik texnologiyalar. – F.: 2023. 126 b.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Istedod, 2008. –180 b.
3. Tojiboyeva D. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. –T., "Fan va texnologiya", 2007.
4. Абдухакимова, Х. А. (2021). Шохимардонсой конус ёйилмаси сугориладиган тупроқларнинг геохимёси. *Б. ф. ф. д. дисс. автореф. Фаргона, 42.*
5. Isag'aliyev M., Abduxakimova X., Mirzajonov I. Sug 'oriladigan o 'tloqi saz tuproqlarining agrokimyoviy xossalari //Fanning dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani materiallari.–F.: FDU. – 2018. – C. 84-86.
6. Isag'aliyev M., Yuldashev G. Abdukhakimova Kh. Geochemistry of biomicroelements in irrigated serozemsof the south of Fergana. *European Sciences review. Scientific journal.* – 2018.
7. Mamatqulov O., Qobilov S., Yokubov S. CULTIVATION OF MEDICINAL SAFFRON PLANT IN THE SOIL COVER OF FERGANA REGION //Science and Innovation. – 2022. – T. 1. – №. 7. – C. 240-244.
8. Abdukhakimova, H. (2023). GENERAL PHYSICAL PROPERTIES OF IRRIGATED SIEROZEM-MEADOW SOILS. *Science and innovation, 2(D2), 140-142.*
9. Mamatqulov O., Qobilov S., Yokubov S. FARG 'ONA VILOYATINING TUPROQ QOPLAMIDA DORIVOR ZAFARON O 'SIMLIGINI YETISHTRISH //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. D7. – C. 240-244.